



**“Advokatlik faoliyatida samarali muloqot ko‘nikmalarini
rivojlantirish”**

Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

kafedراسi o‘qituvchisi

Dilbar Xojimuxamedova

***«Nutq eng kuchli argument bilan boshlanishi va yakunlanishi kerak,
chunki boshida ongni egallashi va oxirida ularni mag‘lub etish kerak».***

Advokatlarning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning huquqiy mobilliklari, hissiy-psixologik va shaxsiy xususiyatlari bilan bir qatorda muloqot ko‘nikmalarining rivojlanganligiga ham bog‘liq. Insonning shaxs sifatida rivojlanishini, jamiyat bilan integratsiyada bo‘lishini, muloqotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj insonning asosiy (bazaviy) ehtiyojlaridan biridir. Muloqot shaxsning aqliy va ijtimoiy, psixo-emotsional rivojlanishining eng muhim omilidir. Muloqot ko‘nikmalari har bir insonga, o‘zga insonlar bilan to‘liq va sifatli muloqot qilish va jamiyatga moslashish uchun zarurdir.

Muloqot insonning normal rivojlanishi uchun muhim, jamiyat a‘zosi, shaxs sifatida, uning ma‘naviy va jismoniy salomatligi uchun, boshqa odamlarni va o‘zini anglash shartidir. Advokatlarning muloqot ko‘nikmalarining rivojlanganligi, ular tamonidan inson huquqlarini himoya qilish faoliyatlarining samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, sud himoyasi sifatini oshirishga olib keladi. Advokatlik kasbi eng nufuzli yuridik kasblardan biri bo‘lib sanaladi. Shu bilan birga, advokatlik faoliyati murakkab soha hisoblanadi, chunki vazifalari ham munosabatlari ham murakkab, mazkur vazifalarni ishonchli vakillar bilan va ishonchli vakillar bilan bajarish yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlari vakillari bilan.



Professional muvaffaqiyatga erishish uchun advokat keng qamrovli munosabatlarni mohirona boshqarishi davomida huquqiy va ahloqiy hususiyatlarni inobatga olishi muhim va bunda albatta advokatning samarali muloqot ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Advokat faoliyatining psixologik tomoni ham ishonchli vakil, sudya, prokuror bilan psixologik aloqa o'rnatish va advokatning kasbiy distruksiya (kasbiy kuyish) va psixologik kuyish holatlarining oldini olish masalasi yechimi bilan bog'liq va bunday murakkab jarayonni amalga oshirishda ham advokat samarali muloqot psixologiyasi yo'nalishiga murojaat qilmasdan iloji yo'q. Advokatning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tufayli uning shaxsiga yuqori kasbiy talablar qo'yiladi. Shuning uchun ham, professionallik va kasbiy xulq-atvor, advokatning samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi muhimligi tan olinadi. Muloqot – ijtimoiy psixologik ta'sir o'tkazuvchi jarayon bo'lib, shaxsning faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, insonlar o'rtasida o'zaro axborot almashish, idrok qilish, anglash va baholash jarayoni hisoblanadi.

Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, muomala va madaniyatlari va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq. Muloqotning psixologik tizimi; 1) Kommunikativ tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni)

2) Interaktiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq atvorlariga ta'sir jarayoni)

3) Perseptiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq psixologik jarayon).

Muloqotning turlari uch turga bo'linadi; verbal, noverbal, paraverbal. Verbal, noverbal, paraverbal muloqot turlari bir biri bilan uzviy bog'liq.

Verbal muloqotga nimalarni kiritish mumkin? Og'zaki aloqa (belgi), so'zlar yordamida amalga oshiriladi. Og'zaki aloqa vositalariga inson nutqi kiradi.

Noverbal muloqot og'zaki bo'lmagan muloqot ko'z, yuz ifodalari va imo-ishoralarni, ovozning paraverbalikasi, intonatsiyani, insonning harakatlari



dinamikasini, o'z ichiga oladi. Muloqot jarayonidagi eng asosiy shartlardan biri noverbal signallar va verbal, ya'ni og'zaki gapirilgan ma'lumot o'zaro mos kelishi kerak. Shunga qarab muloqot jarayonida odamning samimiy yoki samimiy emasligini bilib olish mumkin. Axborot va psixologik ta'sir-bu so'z, ma'lumot bilan ta'sir qilish. Ushbu turdagi psixologik ta'sir ma'lum g'oyalar, qarashlar, e'tiqodlarni shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu odamlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Zamonaviy dunyoda bunday ta'sir — ommaviy axborot vositalari, Internet orqali — ko'p millionli auditoriyaga tushadi. Sud jarayonidagi advokat ishtirokining kulminatsion nuqtasi uning himoya nutqi sanaladi, sababi advokat sud tergovini tahlil qiladi, ish bo'yicha to'plangan materiallarni himoya nuqtai nazaridan tahlil qiladi, ularga huquqiy baho beradi, sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni rad etadigan yoki uning aybini yengillashtiradigan dalillarni keltiradi, jazo va sud tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi. Murakkab bunday jarayonda advokatning samarali muloqot, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Himoya, nutqi yordamida advokat sud muzokara ishtirokchilariga ijobiy ta'sir o'tkaza bilishi, ularda ayblovga nisbatan ishonchsizlikni shakllantira olishi uchun samarali muloqot, notiqlik mahoratini egallashi, muntazam ravishda kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, jumladan, ochiq sudlarda ishtirok etib, mahoratli advokatlarning himoya nutqlarini eshitishi, ushbu yo'nalishda muntazam malaka ko'nikmalarini oshirib borishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy xulosa shuki, advokatning huquqiy mobillik bilan bir qatorda, samarali muloqot, notiqlik madaniyati, mantiq qonun-qoidalariga asoslanib tuzilgan himoya nutqi aksariyat holatlarda o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.